

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc. 03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**ABDURAXMANOVA NARGIZA DJURAYEVNA**

**HARBIY XIZMATDAGI AYOLLAR UCHUN BELGILANGAN  
XUSUSIYATLI FORMALI KIYIMNI LOYIHALASH USULINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**05.06.04-Tikuvchilik buyumlari texnologiyasi va kostyum dizayni**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
Of technical sciences**

<b>Abduraxmanova Nargiza Djurayevna</b> Harbiy xizmatdagi ayollar uchun belgilangan xususiyatli formal kiyimni loyihalash usulini takomillashtirish .....	3
<b>Абдурахманова Наргиза Джураевна</b> Совершенствование метода проектирования форменной одежды с заданными свойствами для женщин военнослужащих.....	21
<b>Abdurakhmanova Nargiza Djurayevna</b> Improving the design methodology for specialized uniforms with established characteristics for women in military service.....	39
<b>E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati</b> <b>Список опубликованных работ</b> <b>List of published works.....</b>	43

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc. 03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**ABDURAXMANOVA NARGIZA DJURAYEVNA**

**HARBIY XIZMATDAGI AYOLLAR UCHUN BELGILANGAN  
XUSUSIYATLI FORMALI KIYIMNI LOYIHALASH USULINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**05.06.04-Tikuvchilik buyumlari texnologiyasi va kostyum dizayni**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/T5128 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti xuzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasidagi ([www.ttesi.uz](http://www.ttesi.uz)) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Kamilova Xolida Hafizovna**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Mansurova Munisa Anvarovna**  
texnika fanlari doktori, professor

**Nabijanova Nargiza Nasimjanovna**  
texnika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Buxoro davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 03/2025.27.12.T.21.01 - raqami Ilmiy kengashning 2026 yil 15 iyun soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100 Toshkent sh. Shahjaxon ko'chasi 5- uy. ) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 2-qavat, 222-xona). Tel.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08, faks 253-36-17; e-mail:titlp-info@edu.uz)

Dissertatsiya ishi bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 300 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100 Toshkent sh. Shahjahan-5, tel.: (+99871) 253-08-08

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil 01 iyun kuni tarqatildi  
(2026 yil 01 iyun № 300 raqamli reestr bayonnomasi).



**A.E. Gulamov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash raisi o'rinbosari, t.f.d., professor



**A.Z. Mamatov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash kotibi, t.f.d., professor

**N.R. Xanxadjayeva**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

## Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda tikuvchilik sanoatlarini ishlab chiqishda harbiy xizmatdagi ayollar tana tuzilishiga mos, qulay formalı kiyim yaratishda energiya-resurs tejamkor texnologiya va texnika vositalarini qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqiyosida BMT statistik ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilda harbiy ayollar ulushi o'rtacha 3 million nafarni tashkil etdi. 2025 yilda bu ko'rsatkich o'rtacha 5 million nafarni, 2030 yilga kelib taxminan 7 million nafar harbiy ayol xizmat qilishi kutilmoqda, bu esa 2026-2030 yillar mobaynida taxminan 30% o'sishni qayd etadi. Tikuvchilik sanoatida iqlim sharoitiga mos, qulay formalı kiyim ishlab chiqish, zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash, asbob-uskunalardan oqilona foydalanish, formalı kiyimlarning estetik ko'rinishini va ularni jahon bozorida raqobatbardoshligini ta'minlash bilan bog'liq.

Jahonda harbiy xizmatdagi ayollar tana tuzilishiga, iqlim sharoitiga, mentalitetga muvofiq, fizik mexanik xususiyatlari yaxshilangan materiallarni qo'llab formalı kiyimni yaratishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda harbiy xizmatdagi ayollar uchun belgilangan xususiyatli formalı kiyimni loyihalash bo'yicha tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, harbiy xizmatdagi ayollar uchun iqlim sharoit va mentalitetga mos, harakatlarni cheklamaydigan, belgilangan xususiyatli kiyimlarni ishlab chiqish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda bugungi kunda tikuvchilik sohasida import hajmini kamaytirish borasida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yuzasidan keng qamrovli chora tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan "to'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish" bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, belgilangan xususiyatli matolar assortimentini ko'paytirish va tikuvchilik sanoatida import o'rnini egallovchi formalı kiyimni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi»<sup>1</sup>, 2017-yil 27-fevraldagi PQ-2800-son «O'zbekiston Respublikasi Vazirliklari, idoralari va tashkilotlarining formalı kiyimlarni ishlab chiqish, standartlashtirish, tasdiqlash va tayyorlash mexanizmini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»<sup>2</sup>gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik Kengashi yig'ilishining 2021-yil 12-yanvardagi 15-son «O'zbekiston Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilari formalı kiyimini ishlab chiqish va milliylikni aks ettiruvchi elementalarni qo'llash

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi 2022-2026-yillarda" to'g'risidagi Farmoni

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirliklari, idoralari va tashkilotlarining formalı kiyimlarni ishlab chiqish, standartlashtirish, tasdiqlash va tayyorlash mexanizmini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2800-sonli Qarori

to'g'risida»gi bayoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlanishining II «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Harbiy xizmatchilar uchun maxsus kiyimlarni loyihalash jarayonini takomillashtirish, ergonomik va gigienik xususiyatlarini o'rganish bilan bog'liq masalalarni o'rganishga mahalliy va xorijiy olimlarning ishlari katta hissa qo'shgan. Ular orasida Ye.Yu.Baxtina, D.S.Kokina, Ye.V.Raguzin, Ye.Ya.Surjenko, Ye.Yu.Nikitina, E.Kim, G.P.Kryuger, L.L.Bin, J.Dorio, E.Bauer, G.Xirsh va boshqalarni qayd etish mumkin

Harbiy xizmatchilarning formali kiyimiga namlab-isitib ishlov berish jarayonini tadqiq etish bo'yicha A.V.Gorishin, harbiy xizmatchilar kiyimi uchun mo'ljallangan materiallarni va materiallar paketini ishlab chiqish bo'yicha I.V.Molkova, R.A.Skott va boshqalarning ilmiy ishlari bag'ishlangan.

Respublikamizda issiq iqlimga mos harbiy xizmatchilar kiyimini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish hamda formali kiyimda qo'llaniladigan matolarni ishlab chiqish masalalari bilan X.X.Kamilova, N.T.Gafurova, D.Qodirova, N.X.Mirtalipova va boshqalar shug'ullanganlar.

Biroq, hozirgacha harbiy xizmatchi ayollar uchun mo'ljallangan, yuqori gigiyenik xususiyatlarga ega matolarni yaratish, zamonaviy dizayn talablari hamda milliy mentalitetga mos yechimlarni ishlab chiqish batafsil o'rganilmagan. Bu esa ularning sifatini baholashni qiyinlashtiradi, estetik xususiyati yuqori bo'lgan formali kiyimni yaratishga to'sqinlik qiladi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to'qimachilik va yengil sanoati institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 30/2024 "O'zbekiston Respublikasi harbiy xizmatchi xodimlari formasi uchun kiyimning texnik tavsiflari va texnik shartlarini ishlab chiqish" xo'jalik shartnomasi asosida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ayollar qomatining antropometrik xususiyatlari va O'zbekiston iqlim sharoitini hisobga olgan holda takomillashtirilgan ergonomik va gigiyenik xususiyatlarga ega bo'lgan harbiy ayollar uchun formali kiyimni ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

harbiy xizmatchi ayollarning o'ziga xos harakatlari holati hamda ekspluatatsiya sharoitini tahlili asosida formali kiyimlar sifat ko'rsatkichlarini ishlab chiqish va asoslash;

harbiy xizmatchilarning amaldagi formali kiyimida qo'llanilgan materiallarni tahlil etish va belgilangan xususiyatli matoni tavsiya etish;

harbiy xizmatchi ayollar formalni kiyimini ishlab chiqish uchun turli xil konstruksiyalash usullarini tahlil etish va ergonomik xususiyati yuqori bo'lgan konstruksiya hamda uning parametrlarini taklif etish;

taklif etilgan yechimlar asosida ayollar harbiy kiyimining tajriba namunalari yaratish va majmuaviy sinovlarni o'tkazish, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibi ta'minot tizimiga joriy etish bo'yicha tavsiyalar tayyorlash.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida harbiy xizmatdagi ayollar uchun belgilangan xususiyatli, zamonaviy dizayn va mentalitetga mos formalni kiyim olingan.

**Tadqiqotning predmeti** sifatida O'zbekiston iqlimiga mos harbiy xizmatchi ayollar yozgi formasini loyihalash jarayoni hamda formalni kiyim materiallari.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida harbiy xizmatchi ayollar formalni kiyimining dizaynini baholash maqsadida ijtimoiy so'rov usuli, matolarning fizik-mexanik va fizik-gigienik ko'rsatkichlarini eksperimental o'lchash usullari, konstruktiv va antropometrik parametrlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun korrelyatsion tahlil usuli, shuningdek olingan eksperimental va hisobiy ma'lumotlarni umumlashtirish va baholash uchun analitik hisob, matematik modellashtirish elementlari hamda matematik-statistik qayta ishlash usullari qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Qurolli Kuchlari tarkibidagi harbiy xizmatchi ayollar uchun belgilangan xususiyatli formalni kiyimni yangi assortimenti tavsiya etilgan va uning dizayni ishlab chiqilgan;

harbiy xizmatdagi ayollar formalni kiyimi uchun O'zbekiston iqlim sharoitiga mos bo'lgan, belgilangan xususiyatli aralash tolali yangi ishlab chiqilgan mato turi tavsiya etilgan hamda asoslangan;

harbiy xizmatchi ayollar uchun belgilangan xususiyatlarga ega formalni ko'ylaklarni loyihalashda qo'llaniladigan konstruksiyalar tahlili asosida dinamik muvofiqlik ko'rsatkichi yuqori bo'lgan Fransuz konstruksiyalash usuli va uning ratsional parametrlari ishlab chiqildi hamda ushbu usulning yuqori ergonomik xususiyatlarga egaligi ilmiy jihatdan asoslangan;

harbiy xizmatchi ayollar formalni ko'ylagining sifat ko'rsatkichlari bo'yicha ahamiyatlilik mezoni aniqlangan hamda Kendell koefitsienti yordamida baholangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

harbiy xizmatchi ayollar uchun O'zbekiston iqlimiga mos belgilangan xususiyatli mato namunalari ishlab chiqilgan;

yoziq formalni ko'ylakning yaxshilangan ergonomik xususiyati yuqori bo'lgan ratsional konstruksiya tavsiya etilgan;

O'zbekiston Qurolli Kuchlari tarkibida xizmat qiluvchi ayollar uchun mentalitetga mos, zamonaviy dizayn asosida yaratilgan formalni ko'ylak namunalari tatbiq etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** sinovdan o'tgan matematik usullarga asoslanganligi; olingan nazariy natijalar amalga oshirilgan eksperimental va amalda o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari bilan solishtirilganligi hamda boshqa olimlar tomonidan olingan ma'lumotlar bilan taqqoslab tekshirilganligi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi harbiy xizmatchi ayollar uchun formal ko'ylagini ekspluatatsiya sinovi natijalari dalolatnomalari bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati gigiyenik va ergonomik xususiyatlarining ratsional ko'rsatkichli harbiy xizmatchi ayollar formal ko'ylagini loyihalashning konseptual yondashuvini ishlab chiqish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yozgi formal ko'ylak uchun gigiyenik xususiyati yaxshilangan matoni qo'llanilishi; harbiy xizmatchi ayollar tipaviy qomatini hisobga olgan asoslangan oqilona konstruksiyani taklif etilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Olingan ilmiy natijalar asosida harbiy xizmatchi ayollar uchun gigiyenik xususiyati yaxshilangan yozgi formal ko'ylak ishlab chiqilgan:

formal ko'ylak dizayni va texnik hujjatlari «O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasi tasarrufidagi "NARIMTEX" MCHJ tikuv korxonasi joriy etildi. («O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasining 5-son ma'lumotnomasi). Natijada, harbiy xizmatchi ayollar uchun issiq iqlimga mos formal ko'ylak dizayni va tayyorlash texnologiyasini joriy etish, konstruktiv choklar soni hamda xom ashyo xarajatlarini kamaytirish evaziga kiyimni tayyorlashda mehnat sarfini 6% gacha qisqartirishga imkon yaratilgan;

Harbiy xizmatchi ayollar formal ko'ylagi uchun O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan sanoat namunasiga patent olingan. («Mudofaa vazirligi ayollar harbiy xizmatchilari uchun formal ko'ylagi», №SAP 2815, 05.05.2025); («Mudofaa vazirligi ayollar harbiy xizmatchilari uchun formal ko'ylagi», №SAP 2816, 05.05.2025). Natijada mudofaa vazirligining ayol harbiy xizmatchilari uchun formal ko'ylak ishlab chiqarish imkoniyati yaratildi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 27 ta ilmiy ishlar chop etilgan, jumladan O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi tomonidan sanoat namunasiga berilgan patentlar 7 ta, OAK tavsiya etgan ilmiy jurnallar 3 ta, shu jumladan xorijiy jurnallar 8 ta, 5 ta xalqaro va 4 ta respublika miqyosidagi konferensiyalarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida ishning dolzarbligi asoslangan, umumiy tavsifi berilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsad va asosiy vazifalari shakllantirilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo‘nalishlariga dissertatsiya ishining mosligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy etilishi va nashr etilishi, dissertatsiyaning tuzilishi ko‘rsatilgan.

Dissertatsiya ishining **“Harbiy xizmatchi ayollar uchun formal kiyimlarni loyihalash jarayonining hozirgi holati”** deb nomlangan birinchi bobida harbiy xizmatchi ayollar uchun formal kiyimlarni loyihalashning hozirgi holati, zamonaviy yondashuvlari hamda materiallar tahlili kompleks ravishda o‘rganilgan. Harbiy xizmatchi ayollar formal kiyimlarini loyihalashning zamonaviy usullari tahlil qilingan. Harbiy xizmatda ayollar ulushining ko‘payib borishi natijasida formal kiyimni yaratishda antropometrik, ergonomik va konstruktiv yechimlarni takomillashtirish zarurligi asoslab berilgan. Mavjud normativ-texnik hujjatlarda ayollar fiziologik va antropometrik xususiyatlarini to‘liq hisobga olinmaganligi aniqlanib, bu holat ilmiy muammo sifatida belgilangan.

AQSH, Ukraina, Turkiya va Xitoy tajribalari qiyosiy tahlil qilinib, ayollar harbiy formasini dizayni va konstruktiv yechimi keltirilgan (1-jadval).

### 1-jadval

Turli mamlakatlardagi harbiy xizmatchi ayollar kiyimi namunalarining qiyosiy tahlili

№	Mamlakat	Tashqi ko‘rinishi	Xususiyatlari va vazifasi	Konstruktiv elementlari
1	AQSH		Army Combat Uniform-Alternate (ACU-A), ayol qomatini hisobga olgan holda yaratilgan tantanali kiyimi	Elastik belbog, ko‘krak vitochkalari, cho‘ntaklar joylashuvining o‘zgarishi, qomatga yaxshi o‘rnashuvi.
2	Ukraina		Arm Women Now loyihasi, ayollar tantanali kiyimi	Baland belli shimlar, yubka ergonomik bichimli kurtka, engil matolar
3	Turkiya		Hijob kiyish imkoniyatiga ega ayollar formasi	Yengil matolar, havo o‘tkazuvchanlik, bosh kiyimlarning moslashuvi
4	Xitoy		Ayollar tantanali kiyimi liniyasini joriy etish	Zamonaviy matolarni ommaviy joriy etish, ergonomik bichim, estetik urg‘u
5	O‘zbekiston		Milliy elementlarni inobatga olgan holda zamonaviy ayollar harbiy formasi	Milliy bezak elementlari (ornamentlar), qomatga mos konstruksiya, funksional cho‘ntaklar, bosh kiyim va aksessuarlarning uyg‘unligi

## Harbiy formalı kiyim turlari uchun qo‘llaniladigan ko‘ylakbop matolar

T/r	Ishlab chiqaruvchi Mamlakat	Yuza zichligi g/m <sup>2</sup>	Tolaviy tarkibi %			O‘rilishi	Mato kengligi sm
			jun	poliester	viskoza		
1	O‘zbekiston	181.9	50	50		sarja	150
2	Turkiya	216.0	40	60		Sarja	150
3	Rossiya	281.8	10	70	20	Sarja	145
4	Ukraina	170.0	45	30	25	Sarja	150
5	Belarus	205.8	30	70		Sarja	145
6	Janubiy Koreya	158.8	10	40	50	Sarja	160
7	AQSh	170.0	45	55		polotno	160
8	Pokiston	158.8	45	55		Sarja	150
9	Xitoy	160.8	30	70		Sarja	145

O‘zbekiston Respublikasi harbiy xizmatchi ayollari uchun kiyim loyihalashning konseptual modeli ishlab chiqildi. Mazkur yondashuv antropometrik moslikni ta‘minlash, zamonaviy materiallardan foydalanish va estetik talablarni uyg‘unlashtirish tamoyillariga asoslanadi. Tadqiqotda badiiy-konstruktiv yechimlarni shakllantirish masalalari ko‘rib chiqildi. Natijada funksionallik, ergonomiklik, estetik jozibadorlik hamda milliy ramziylik uyg‘unligini ta‘minlashning ilmiy asoslari belgilandi. Shuningdek, mavsumiylikni hisobga olish, modulli tuzilmalardan foydalanish va yuqori yuklama ta‘siridagi qismlarni mustahkamlash kabi konstruktiv yechimlarning ahamiyati ko‘rsatildi.

Umuman olganda, birinchi bob natijalari O‘zbekistonda harbiy xizmatchi ayollar uchun milliy, ergonomik va iqlimga moslashtirilgan formalı kiyim konsepsiyasini ishlab chiqish zarurligini asoslab beradi hamda keyingi boblarda olib boriladigan eksperimental va konstruktiv tadqiqotlar uchun nazariy-metodik poydevor vazifasini bajaradi.

Dissertatsiyaning "**Harbiy xizmatchi ayollar formalı kiyimini loyihalash jarayonini tadqiq etish**" nomli ikkinchi bobida harbiy xizmatchi ayollar formalı kiyimini loyihalash jarayoni ilmiy jihatdan tadqiq etildi. Tadqiqot doirasida antropometrik, fiziologik, ergonomik va fizik-mexanik omillar kompleks tahlil qilindi.


Harbiy formalarda qo‘llaniladigan matolarning fizik-mexanik xususiyatlari laboratoriya sharoitida tadqiq etildi (3-jadval). Rossiya, Turkiya, Belarus, Xitoy kabi mamlakatlar hamda O‘zbekiston iqlim sharoitiga mos belgilangan xususiyatli tavsiya etilgan gazlama sinovdan o‘tkazildi. Biz tomondan taklif etilayotgan mato “UZWOOLANTEX” MCHJ korxonasi ishlab chiqarilgan bo‘lib, tarkibi 25 % jun, 58 % poliester, 17 % viskozadan iborat. Natijalarga asosan biz tomondan taklif etilgan aralash tolali gazlama gigiyenik va ekspluatatsion ko‘rsatkichlar muvozanati bo‘yicha eng maqbul ekanini ko‘rsatdi. Uning gigroskopikligi 8,6 %, havo o‘tkazuvchanligi 241,7 dm<sup>3</sup>/m<sup>2</sup>·s, gijimlanmasligi 86,5 % ni tashkil etdi, mustahkamlik ko‘rsatkichlari

esa me'yorlardan yuqori bo'ldi. Ushbu gazlama bazaviy material sifatida tavsiya etildi (1-rasm).

### 3-jadval

Harbiy xizmatchilar formal kiyimida qo'llaniladigan matolarning fizik-mexanik xususiyatlari tahlili

T/R	Mato xususiyati	Mato namunalari va ishlab chiqilgan joy						GOST 19204-73
		№1 O'zb	№2 Rossiya	№3 Turkiya	№4 Rossiya	№5 Belarus	№6 Xitoy	
1	Tolaviy tarkibi, %	25% 58% Jun	10% Jun, 70% P/e, 20% Vis	40% 60% Vis	20% 80% Jun	30% 70% Jun	30% 70% Vis.	
2	Mato eni sm	150	150	150	150	150	150	150+2
3	Yuza zichligi g/m <sup>2</sup>	181.9	281.8	216.0	184.2	205.8	176.3	160 – 210
4	Uzilish kuchi, N Arqoq Tanda	711 593	993 708	986 601	889 526	886 561	834 443	650 450
5	Kirishuvchanlik, % Arqoq Tanda	-1.0 -1.0	-1.0 -1.0	0 0	0 -1.0	-1.0 -1.0	0 -1.0	≥ 2
6	Pilinglanish 10 cm <sup>2</sup>	0	3	1	3	4	2	1
7	G'ijimlanmaslik, %	86.5	69.4%	65.5%	80%	72.7%	68.8%	80 – 120
8	Havo o'tkazuvchanligi, s m <sup>3</sup> /sm <sup>2</sup> s	241.7	99.3	132.4	62.8	91.4	174.5	100-300
9	Gigroskopikligi, %	8.6	8.1	4.2	6.6	3.2	3.6	>3
10	Bo'yoqqa chidamliligi, ball Yuvishda rangning barqarorligi Terlashda rangning barqarorligi Yorug'lik rangning barqarorligi	4/5/5	4/5/5	4/5/5	4/5/5	4/5/5	3/5/5	4/5/5
11	Elektranuvchanlik, Om/sm <sup>2</sup>	1029	5356	711	1333	2897	2901	1011-2000
12	Ishqalanishga chidamlilik, sikl	20000	25000	21800	19500	22000	21500	15000 21000



**1-rasm. Ko'ylakbop matolarning sifat ko'rsatkichlarini kompleks baholash**

Harbiy xizmatchi ayollar uchun formal kiyimlarni loyihalashda ayol qomatining morfologik, antropometrik, fiziologik va ergonomik xususiyatlari tahlil qilindi. GOST 31396–2009 hamda ISO 8559-2:2017 standartlari asosida o'lchamlar tizimi o'rganilib, konstruksiyani tana parametrlariga moslashtirishning asosiy tamoyillari belgilandi. Ko'krak, bel va bo'ksa o'lchamlari nisbatining konstruktiv yechimlarga ta'siri aniqlanib, vitachkalar, buyum muvozanati, o'miz va yelka choki elementlarini shakllantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Shuningdek, xizmat faoliyati davomida bajariladigan harakatlarni cheklamaydigan, qulaylikni ta'minlovchi konstruktiv yechimlar hamda havo o'tkazuvchan, gigroskopik va ishqalanishga chidamli materiallardan foydalanishning maqsadga muvofiqligi asoslandi.


Tadqiqotlar ayol qomati erkaklardan morfologik jihatdan farq qilishini ko'rsatdi: ko'krak va bo'ksa sohasining bo'rtib chiqishi, bel va ko'krak o'rtasidagi farq, yelka kengligining kichikligi hamda old va orqa bo'lak uzunliklari tafovuti konstruksiyani alohida yondashuv asosida ishlab chiqishni talab etadi. Bu omillar vitachka chuqurligi, yelka chizig'i, o'miz shakli va buyum muvozanatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Fiziologik tahlilda termoregulyatsiya, namlik almashinuvi va energiya sarfi xususiyatlari ko'rib chiqildi. Ayollarda tana yog' qatlami nisbatan yuqoriroq va mushak massasi pastroq bo'lishi material tanlashda gigiyenik ko'rsatkichlarni ustuvor etishni talab qiladi. Shu bois mato havo o'tkazuvchan, gigroskopik va ishqalanishga chidamli bo'lishi zarurligi asoslandi.

Ergonomik tahlilda safda turish, salomlashish, marsh-parad yurishi va o'tirish kabi asosiy harakatlar o'rganildi. Formal kiyim yelka kamari erkinligini ta'minlashi, bel va bo'ksa sohasida ortiqcha bosim hosil qilmasligi hamda yeng va o'miz qismi harakatga mos bo'lishi zarur. Aks holda mato tortilishi va harakat cheklanishi kuzatiladi.

26–45 yoshli harbiy xizmatchi ayollar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, respondentlarning 45 % formani juda qulay, 25 % o‘rtacha, 8 % noqulay deb baholagan. Ustuvor talablar sifatida havo o‘tkazuvchanlik (33 %), umumiy qulaylik (29 %), muddatlilik (19 %) va yengillik (18 %) qayd etildi. Funksionallik va ergonomika (59 %) estetik ko‘rsatkichlardan ustun ekani aniqlandi.

Konstruksiyalash usullari antropometrik o‘lchamlar va geometrik bog‘lanishlarga asoslanadi. Bazaviy konstruksiyaning aniqligi mahsulot sifatini belgilaydi (ГОСТ 31399–2009). Harbiy xizmatchi ayollar formal kiyimlarini loyihalashda qomatga mos o‘rnashuv, qat’iy siluetning saqlanishi va ekspluatatsiya jarayonida ergonomik qulaylikni ta’minlash muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Mazkur talablar nuqtayi nazaridan konstruksiyalashning Fransuz, EMKO SEV, Uinifred Aldrichning ingliz hamda “Müller & Sohn” nemis usullari qiyosiy tahlil qilinib, ularning afzalliklari va cheklovlari aniqlandi (2-rasm).



**2-rasm. Konstruksiyalash usullari tahlili**


Ushbu tahlil harbiy ayollar uchun formal kiyim konstruksiyasini tanlashda metodik asos yaratadi.

Tadqiqotda Fransuz, Müller & Sohn, EMKO CƏB va Uinifred Aldrich usullari qomatga o‘rnashuv aniqligi, ergonomik moslashuvchanlik va ommaviy ishlab chiqarishga moslik mezonlari asosida qiyosiy tahlil qilindi (3-rasm).

Fransuz usuli asosida ishlab chiqilgan yozgi formal ko‘ylak +35°C sharoitda sinovdan o‘tkazildi (kiyim osti harorati 32°C, nisbiy namlik 32 %, CO<sup>2</sup>— 800 ppm). Ko‘rsatkichlar gigiyenik me‘yorlarga mos ekani tasdiqlandi.

Natijalarni integral baholash uchun ko‘rsatkichlar [0;1] oralig‘iga keltirilib, vazn koeffitsiyentlari hisoblandi. Eksperimental va ekspert baholari asosida taklif etilgan

formaning texnologik, ergonomik va ekspluatatsion afzalliklari ilmiy jihatdan asoslandi.



**3-rasm. Fransuz, EMKO CƏB, Unifred Aldrich va Müller & Sohn uslublari bo'yicha tayanch konstruksiyalarning ustma-ust tushishi va o'miz, ko'krak vabel chizig'ining konstanta sifatida mos kelishi**

Fransuz, Müller & Sohn (nemis), EMKO CƏB va Unifred Aldrich (ingliz) konstruksiyalash usullari quyidagi mezonlar asosida qiyosiy tahlil qilindi: qomatga o'rnavchuv aniqligi; ergonomik moslashuvchanlik; texnologik tejamkorlik; ommaviy ishlab chiqarishga moslik; individual morfologik xususiyatlarni hisobga olish darajasi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, fransuz usuli konstruksiyani tez va sodda tuzish, minimal o'lchovlar asosida yetarli aniqlikni ta'minlash hamda ommaviy ishlab chiqarish uchun qulayligi bilan ajralib turadi. Ushbu usul yopishgan va yarim yopishgan siluetli buyumlar uchun mos bo'lib, intizomiy qat'iylik talab etiladigan harbiy forma uchun maqbul hisoblanadi. Faol harakat sharoitida esa yelka kamari va o'miz sohasida kichik konstruktiv tuzatishlar talab etiladi.

Bazaviy konstruksiyani modellashtirishda ayrim loyiha chiziqlarini o'zgarmas (konstanta) sifatida qabul qilish konstruksiya barqarorligini ta'minlaydi. Tadqiqot davomida uch variant ko'rib chiqildi: o'miz chizig'ini, ko'krak chizig'ini va bel chizig'ini fiksatsiyalash (3-rasm).

Matematik jihatdan modellashtirish OXY koordinatalar tizimida ko'rib chiqildi. O'zgaruvchan chiziqlar uchun:

$$x'=x+\Delta x, y'=y+\Delta y$$

Konstruksiyaning vertikal muvozanatini saqlash sharti:

$$\sum w_j \Delta y_j = 0 \quad (1)$$

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, o'miz chizig'ini konstanta sifatida tanlash konstruktsiyaning eng yuqori barqarorligini ta'minlaydi. Buning sababi – o'miz yelka kamarining muvozanatini, old va orqa bo'laklarning tutashuvini hamda harakat erkinligini belgilovchi asosiy funksional chiziq ekanligidadir. O'miz chizig'i antropometrik jihatdan nisbatan barqaror parametrlar (ko'krak aylanasi, orqa kengligi va qo'ltiq chuqurligi) bilan bog'liq.

Shu bois harbiy xizmatchi ayollar formali kiyimini loyihalashda o'miz chizig'ini konstanta sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq deb topildi.

Tanlangan fransuz usuli asosida yozgi formali ko'ylak namunasi ishlab chiqildi va real sharoitda sinovdan o'tkazildi. Tashqi havo harorati +35°C bo'lgan sharoitda quyidagi natijalar qayd etildi: kiyim osti harorati -32°C; nisbiy namlik 32%; CO<sub>2</sub> miqdori-800 ppm.

Bu ko'rsatkichlar gigiyenik me'yorlarga mos bo'lib, kiyim qulay mikroiklimni ta'minlashini tasdiqladi.

Turli fizik birliklardagi ko'rsatkichlarni taqqoslash uchun ularni me'yorlash (normalizatsiya) amalga oshirildi. Har bir ko'rsatkich uchun ruxsat etilgan diapazon belgilandi va qiymatlar [0;1] oralig'iga keltirildi.

"Ko'proq-yaxshiroq" tipidagi ko'rsatkichlar uchun:

$$q_i = \frac{X_i - X_i^{min}}{X_i^{max} - X_i^{min}} \quad (2)$$

"Kamroq-yaxshiroq" tipidagi ko'rsatkichlar uchun mos ravishda teskari bog'liqlik qo'llanildi.

Integral baholash uchun vazn koeffitsiyenti hisoblandi:

$$W_i = \frac{q_i}{\sum_{j=1}^m q_j} \quad (3)$$

Natijada har bir ko'rsatkichning forma sifatiga qo'shgan hissasi aniqlanib, umumiy integral profil shakllantirildi. Eksperimental natijalar va ekspert baholari uyg'unlashtirilib, taklif etilayotgan formaning texnologik, ergonomik va ekspluatatsion afzalliklari ilmiy asoslandi.

Dissertatsiyaning "**Harbiy xizmatchi ayollar uchun maxsus kiyimning funksional va ergonomik xususiyatlarini takomillashtirish**" deb nomlangan uchinchi bobida harbiy xizmatchi ayollar uchun maxsus formali kiyimning funksional va ergonomik xususiyatlarini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Amaldagi me'yoriy hujjatlar asosan erkaklar qomatiga yo'naltirilganligi sababli, ayollar formali kiyimini loyihalashda alohida ilmiy-metodik yondashuv zarurligi asoslab berilgan.

Tadqiqotda "dinamik muvofiqlik" tushunchasi asosiy mezon sifatida qabul qilinib, kiyimning harakat jarayonida biomexanik amplitudani saqlab qolish darajasi matematik ifoda orqali baholandi. Dinamik yaroqlilikning o'lchamsiz ko'rsatkichi (P)

yordamida konstruksiyalarning ergonomik samaradorligi aniqlanib, uning chegaraviy qiymatlari belgilandi.

Konstruktiv parametrlarni aniqlashda antropometrik o'lchamlar, erkinlik qo'shimchalari, material xususiyatlari va siluet ko'rsatkichlari tizimli ravishda hisobga olindi. Bazaviy konstruksiya fransuz usuli asosida qurilib, vitachkalar tizimi orqali ortiqcha hajmning ratsional taqsimoti ta'minlandi. Ko'krak vitachkasining geometrik modeli shakl invariantligini saqlash imkonini berishi ilmiy jihatdan asoslandi.

Dinamik muvofiqlikni baholash maqsadida ergonomik stendda eksperimental sinovlar o'tkazildi. Qo'l harakat amplitudasi kiyimda va kiyimsiz holatda taqqoslanib, P ko'rsatkichining 0,838-0,879 oralig'ida o'zgarishi aniqlandi.

Eng yuqori natija 2-variantda ( $P = 0,879$ ) qayd etilib, mazkur variant bazaviy konstruktiv yechim sifatida tavsiya etildi.

Optimal variant yeng o'mizini mikrochuqurlashtirish, qiyama balandligini kamaytirish, o'tqazishni sektorlar bo'yicha qayta taqsimlash, yelka chokini oldinga siljitish hamda yelka aylanasi bo'yicha muvozanatli qo'shimchalar kiritish orqali shakllantirildi.

Tadqiqot natijasida konstruksiya usullari (Fransuz, Müller & Sohn, Aldrich), ayollar antropometriyasi va dinamik sinov natijalari integratsiyasi asosida harbiy xizmatchi ayollar uchun ergonomik, funksional va seriyali ishlab chiqarishga mos konstruktiv-funksional model ishlab chiqildi. Taklif etilgan yechim saf talablari va harakatchanlik o'rtasida optimal muvozanatni ta'minlaydi hamda amaliyotga joriy etish uchun tavsiya etiladi.

Mazkur bo'limda harbiy xizmatchi ayollar formal kiyimining ekspluatatsion, gigiyenik, ergonomik va estetik ko'rsatkichlarini kompleks baholashning matematik modeli ishlab chiqildi. Dastlabki tahlillar shuni ko'rsatdiki, kiyim sifati nafaqat statik o'lchamlarga moslik, balki "yeng o'mizi – yeng qiyamasi – yelka" tugunining kinematik ishlashi hamda yuklama sharoitida kiyim osti mikroiklim ko'rsatkichlari bilan belgilanadi.


Tadqiqot doirasida to'rtta model (3-rasm) (asosiy, A, B va C) 10 ta asosiy parametr bo'yicha qiyosiy baholandi: gigroskopiklik, uzilish kuchi, havo o'tkazuvchanlik, to'plam og'irligi, ergonomika, estetika, rangning chidamliligi, harorat qulayligi, nisbiy namlik va CO<sub>2</sub> miqdori. Turli o'lchov birliklarida ifodalangan ko'rsatkichlarni taqqoslash maqsadida 1-5 ballik shkalada chiziqli me'yorlashtirish amalga oshirildi.

Ko'rsatkichlarning nisbiy ahamiyatini aniqlash uchun Shennon entropiyasiga asoslangan vaznlash usuli qo'llanildi. Mazkur yondashuv mezonlarning axborot sig'imiga ko'ra og'irlik koeffitsiyentlarini obyektiv tarzda belgilash va subyektivlikni kamaytirish imkonini berdi. Integral sifat ko'rsatkichi quyidagi formula asosida hisoblandi:

$$R_i = \sum_{j=1}^m W_j * q_{ij} \quad (4)$$

Hisob-kitob natijalariga ko‘ra modellar quyidagicha ranjirovka qilindi: Asosiy model – 4,34; Model A – 2,99; Model C – 2,11; Model B – 1,80.


Natijalar asosiy modelning gigiyenik, ergonomik va estetik ko‘rsatkichlar bo‘yicha eng muvozanatli ekanini hamda yuqori harorat sharoitida (+35 °C) qulay mikroiklimni ta‘minlashini tasdiqladi. Korrelyatsion tahlil integral bahoga eng katta ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar sifatida estetika, ergonomika, harorat va namlik qulayligi ko‘rsatkichlarini aniqladi, CO<sub>2</sub> konsentratsiyasi esa salbiy bog‘liqlikka ega ekanligi qayd etildi (4-rasm).



4-rasm. Formali kiyim modellarini kompleks baholash diagrammasi

Shunday qilib, Shennon entropiyasi asosidagi ko‘p mezonli matematik model formal kiyim sifatini kompleks va obyektiv baholash imkonini berdi. Tadqiqot natijalari asosiy modelni harbiy xizmatchi ayollar uchun seriyali ishlab chiqarishga tavsiya etish mumkinligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Dissertatsiyaning “**Harbiy xizmatdagi ayollar uchun formal ko‘ylakni ishlab chiqish**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida harbiy xizmatdagi ayollar uchun formal ko‘ylakni loyihalash, konstruksiyalash, texnologik ishlov berish va ishlab chiqarishga joriy etish masalalari ilmiy-amaliy jihatdan asoslab berildi hamda iqtisodiy samaradorligi hisoblab chiqildi.



**6-rasm. Harbiy xizmatchi ayollar formali ko‘ylagi model xususiyatlari**



**5-rasm. Asosiy model, A model, B model, C model**

Harbiy xizmatdagi ayollar formali ko‘ylagiga qo‘yiladigan funksional, ergonomik, estetik va texnologik talablar asosida yangi model ishlab chiqildi. 164-44-96 tipaviy o‘lcham uchun Fransuz konstruksiyalash usuli asosida bazaviy konstruksiya qurildi va an’anaviy konstruktiv modellash usullari yordamida texnik eskizga muvofiq takomillashtirildi. Model yarim yopishgan siluetli, pidjakkbop yoqali, yashirin taqilmali, bel chizig‘i bo‘ylab shakllantirilgan taxlamali, yon cho‘ntakli va pogon o‘rnatish imkoniyatiga ega konstruktiv yechim asosida ishlab chiqildi.

Texnologik ishlov berish jarayonida chok turlari material xususiyatlari hamda ekspluatatsion yuklamalarni hisobga olgan holda tanlandi. Choklarning mustahkamligi, tashqi ko‘rinishi va ishonchliligi ta‘minlandi. Konstruktiv va

texnologik yechimlarni optimallashtirish hisobiga xomashyo sarfi hamda texnologik operatsiyalar soni qisqartirildi.

Taklif etilgan formal ko'ylak 2023–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tizimida tajriba-sanoat sinovidan o'tkazilib, "NARIMTEX" MCHJ korxonasi ishlab chiqarishga joriy etildi. Mahalliy ishlab chiqariladigan jun–poliester–viskoza aralash matodan foydalanish import o'rnini bosish hamda xomashyo xarajatlarini kamaytirish imkonini berdi.

Iqtisodiy hisob-kitoblar natijasiga ko'ra, taklif etilgan formal ko'ylakni joriy etish orqali bir dona mahsulotdan 78 218 so'm iqtisodiy samara olinishi aniqlandi. Yillik ehtiyoj 10 000 dona deb olinganda, kutilgan yillik iqtisodiy samara 782 180 000 so'mni tashkil etadi. Harbiy xizmatdagi ayollar uchun formal ko'ylakning ilmiy asoslangan konstruktiv va texnologik yechimlari ishlab chiqildi, ishlab chiqarishga joriy etildi hamda uning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi dalillar asosida tasdiqlandi.

## XULOSALAR

1. Harbiy xizmatdagi ayollar formal kiyimlarini loyihalash zamonaviy Armiya sharoitida antropometriya, ergonomika, materialshunoslik va badiiy-estetik tamoyillarni kompleks integratsiyalashni talab etuvchi muhim ilmiy-amaliy vazifa ekanligi asoslandi. Ayollar organizmining anatomik-fiziologik xususiyatlarini inobatga olmasdan ishlab chiqilgan unifikatsiyalashgan formalar funksional samaradorlikni to'liq ta'minlamasligi aniqlandi.

2. Xorijiy tajriba tahlili asosida genderga moslashtirilgan konstruktiv yechimlar, antropometrik o'lchamlar to'rtini farqlash, funksional zonalash va mos material tanlash harbiy ayollar formasining qulayligi va ekspluatatsion ishonchliligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi tasdiqlandi.

3. O'zbekistonning keskin kontinental iqlimi sharoitida 170–210 g/m<sup>2</sup> yuza zichlikka ega bo'lgan, jun–poliester–viskoza aralash tolali, sarja o'rilishli matolar harbiy ayollar formasi uchun eng maqbul gigiyenik ko'rsatkichlarga ega ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi. Mahalliy ishlab chiqarilgan matolarning qo'llanilishi iqtisodiy va texnologik ustunliklarni ta'minlashi ko'rsatildi.

4. Harbiy xizmatdagi ayollar qomati xususiyatlarining antropometrik tahlili asosida ular uchun alohida bazaviy konstruksiyalarni ishlab chiqish zarurligi isbotlandi. Qiyosiy tahlil natijasida fransuz konstruksiyalash usuli tuzatishlarga moslashuvchanligi, gradatsiyalash qulayligi va ommaviy ishlab chiqarishga mosligi bilan eng maqbul usul sifatida tanlandi.

5. Yeng o'mizi geometriyasi, yeng qiyamasi balandligi va o'tqazish taqsimotini optimallashtirish orqali yelka kamari harakatchanligini saqlash imkonini beruvchi ratsional konstruktiv sxema ishlab chiqildi. P harakatchanlik ko'rsatkichining 0,95 va undan yuqori darajada ta'minlanishi konstruksiyaning dinamik ishonchliligini tasdiqladi.

6. "Inson – kiyim – tashqi muhit" tizimi o'zaro ta'siri tahlili asosida harbiy xizmatdagi ayollar uchun formal ko'ylakning dekorativ-konstruktiv va texnologik talablari ishlab chiqildi hamda ikki xil ratsional model varianti taklif etildi. Konstruktiv

va texnologik yechimlarni optimallashtirish hisobiga xomashyo sarfi va operatsiyalar soni qisqartirildi.

7. Ishlab chiqilgan model 2023–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tizimida tajriba-sinovdan o‘tkazildi va NARIMTEX MCHJ korxonasi ishlab chiqarishga joriy etildi. Sanoat sinovlari konstruksiyaning texnologik tayyorligi va ekspluatatsion ishonchligini tasdiqladi.

8. Iqtisodiy hisob-kitoblar natijasiga ko‘ra, taklif etilgan formal ko‘ylakni joriy etish orqali bir dona mahsulotdan 78 218 so‘m iqtisodiy samara olinishi, yillik 10 000 dona ehtiyoj sharoitida esa 782 180,0 ming so‘m miqdorida iqtisodiy samaraga erishilishi asoslab berildi. Bu ishlanmaning amaliy ahamiyati va ishlab chiqarishga joriy etish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ  
DSc. 03/2025.27.12.Т.21.01 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ИНСТИТУТЕ  
ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ  
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**АБДУРАХМАНОВА НАРГИЗА ДЖУРАЕВНА**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДА ПРОЕКТИРОВАНИЯ  
ФОРМЕННОЙ ОДЕЖДЫ С ЗАДАНЫМИ СВОЙСТВАМИ  
ДЛЯ ЖЕНЩИН ВОЕННОСЛУЖАЩИХ**

**05.06.04 – Технология швейных изделий и дизайн костюма**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО  
ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент-2026**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан за № В2024.4.PhD/T5128**

Диссертация выполнена в Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.ttesi.uz](http://www.ttesi.uz)) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:** **Камилова Холида Хафизовна**  
доктор технических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** **Мансурова Муниса Анваровна**  
доктор технических наук, профессор

**Набижанова Наргиза Насимжановна**  
доктор технических наук, профессор

**Ведущая организация:** **Бухарский государственный технический университет**


Защита диссертации состоится 15 июня 2026 года в 10<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета 03/2025.27.12.Т.21.01 при Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности по адресу: 100100., г. Ташкент, ул. Шохжахон-5, Административное здание Ташкентского института текстильной и легкой промышленности, 2 этаж, 222-аудитория, тел.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08, факс: 253-36-17; e-mail: [titlp\\_info@edu.uz](mailto:titlp_info@edu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского института текстильной и легкой промышленности (зарегистрирована № 300). Адрес: 100100, г. Ташкент, ул. Шохжахон- 5, тел.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08.

Автореферат диссертации разослан 1 июня 2026 года  
(реестр протокола рассылки № 300 от 2026 года).



**А.Э. Гуламов**  
Зам.председателя научного совета по  
присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор



**А.З. Маматов**  
Ученый секретарь научного совета по  
присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

**Н.Р. Ханхаджаева**  
Председатель Научного семинара при научном совете  
по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мире при разработке швейной промышленности использование энергосберегающих технологий и технических средств для создания удобной форменной одежды, соответствующей телосложению женщин военнослужащих, занимает одно из ведущих мест. В мировом масштабе, согласно статистике ООН, в 2023 году доля женщин-военнослужащих составила в среднем 3 миллиона человек. Ожидается, что в 2025 году этот показатель составит в среднем 5 миллионов, а к 2030 году - около 7 миллионов женщин-военнослужащих, что зафиксировывает рост примерно на 30% в течение 2026-2030 годов. В швейной промышленности это связано с разработкой удобной форменной одежды, соответствующей климатическим условиям, обеспечением современными технологиями, рациональным использованием оборудования, обеспечением эстетического вида форменной одежды и ее конкурентоспособности на мировом рынке.

В мире активно ведутся научные исследования, направленные на разработку форменной одежды для женщин-военнослужащих с использованием материалов, обладающих улучшенными физико-механическими и эксплуатационными свойствами. Особое внимание уделяется созданию униформы, учитывающей антропометрические особенности женской фигуры, климатические условия эксплуатации, а также национально-культурные традиции и социально-психологические аспекты. Одним из приоритетных направлений является проектирование специальной форменной одежды, обеспечивающей высокий уровень комфорта, эргономичности и функциональности, не ограничивающей свободу движений в процессе выполнения служебных обязанностей.

В Республике Узбекистан также реализуется комплекс мер, направленных на модернизацию и повышение эффективности предприятий текстильной и швейной промышленности, снижение импортозависимости и увеличение объемов производства конкурентоспособной продукции. В соответствии с задачами, определенными в Стратегия развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы, особое значение придается ускоренному развитию текстильной отрасли, в том числе увеличению объемов производства текстильной продукции.

Данная диссертационная работа в определенной степени служит реализации задач, определенных Постановлениями Президента Республики Узбекистан 28 января 2022 года принял «Новую стратегию развития Узбекистана на 2022-2026 годы»<sup>1</sup> от 27 февраля 2017 года № ПП-2800 "О мерах по упорядочению механизма разработки, стандартизации, утверждения и изготовления форменной одежды министерств, ведомств и организации Республики Узбекистан"<sup>2</sup> от 15 июля 2019 года № ПП-4394 "О мерах по оптимизации порядка ношения форменной одежды сотрудниками государственных органов," протоколом заседания Совета безопасности при

<sup>1</sup> Постановлениями Президента Республики Узбекистан 28 января 2022 года принял «Новую стратегию развития Узбекистана на 2022-2026 годы»

<sup>2</sup> 27 февраля 2017 года № ПП-2800 "О мерах по упорядочению механизма разработки, стандартизации, утверждения и изготовления форменной одежды министерств, ведомств и организации Республики Узбекистан"

Президенте Республики Узбекистан от 12 января 2021 года № 15 "О разработке форменной одежды военнослужащих Вооружённых Сил Узбекистана и применении элементов, отражающих национальную идентичность," а также другими нормативно-правовыми документами, относящимися к данной сфере деятельности.

**Соответствие исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики по направлению: П. «Энергетика, энерго- и ресурсосбережение».

